

## Ingliz tilini o‘rganishda og‘zaki mashqlarning ahamiyati

Pardayeva Aziza  
[aziza.pardayeva85@gmail.com](mailto:aziza.pardayeva85@gmail.com)

Katta o‘qituvchisi  
Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganishda og‘zaki mashqlarning ahamiyati va ularning til o‘rganish jarayoniga ta’siri haqida so‘z boradi. Ingliz tili o‘qituvchilari va talabalar uchun og‘zaki mashqlar, ya’ni suhbatlar, dialoglar, va amaliy mashqlar til o‘rganishning samarali usuli sifatida ko‘riladi. O‘rganish jarayonida og‘zaki mashqlarga e’tibor qaratish talabalarning tilni tezroq va samarali egallashiga yordam beradi. Ushbu maqola ingliz tilini o‘rganishda og‘zaki mashqlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, til o‘rganish jarayonida og‘zaki mashqlarni qanday o‘tkazish, qaysi metodlardan foydalanish kerakligi haqida maslahatlar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** og‘zaki mashqlar, til o‘rganish jarayoni, suhbatlar, dialoglar, amaliy mashqlar, nutq ko‘nikmalari, interaktiv yondashuvlar.

## Роль устных упражнений в освоении английского языка

Пардаева Азиза  
[aziza.pardayeva85@gmail.com](mailto:aziza.pardayeva85@gmail.com)

Старший преподаватель  
Самаркандский государственный институт иностранных языков

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение устных упражнений при изучении английского языка и их влияние на процесс овладения языком. Устные упражнения, такие как беседы, диалоги и практические задания, рассматриваются как эффективный метод изучения языка для преподавателей и студентов английского языка. Уделение внимания устным упражнениям в процессе обучения помогает студентам быстрее и эффективнее освоить язык. В статье анализируются теоретические и практические аспекты устных упражнений при изучении английского языка. Также даются рекомендации о том, как проводить устные упражнения и какие методы использовать.

**Ключевые слова:** устные упражнения, процесс изучения языка, беседы, диалоги, практические задания, навыки речи, интерактивные подходы.

## The importance of oral exercises in learning English

Pardayeva Aziza  
[aziza.pardayeva85@gmail.com](mailto:aziza.pardayeva85@gmail.com)

Senior lecturer  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Annotation.** This article discusses the importance of oral exercises in learning English and their impact on the language learning process. For both English teachers and students, oral exercises, such as conversations, dialogues, and practical exercises, are considered an effective method of language learning. Focusing on oral exercises during the learning process helps students acquire the language more quickly and efficiently. The article analyzes both the theoretical and practical aspects of oral exercises in learning English. It also provides advice on how to conduct oral exercises and which methods to use in the language learning process.

**Keywords:** oral exercises, language learning process, conversations, dialogues, practical exercises, speaking skills, interactive approaches.

Ingliz tili bugungi kunda dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan va eng ko‘p o‘rganilayotgan tillardan biri hisoblanadi. Global kommunikatsiya, ilmiy tadqiqotlar, biznes, madaniyat va boshqa sohalarida ingliz tilining o‘rni juda katta. Shu bilan birga, ingliz tilini o‘rganishning samarali usullarini izlash, tilni o‘rganish jarayonini yaxshilash har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Tilni o‘rganishda faqat grammatikani va lug‘atni o‘rganish yetarli emas, ayniqsa, real hayotdagi muloqotda samarali ishtirok etish uchun og‘zaki muloqotning ahamiyati ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun"i (2020 yil) ta‘lim sohasidagi turli jihatlarni, shu jumladan, til o‘rganish va ta‘lim jarayonidagi kommunikativ yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Xususan ushbu qonunning 34-moddasida o‘qituvchilarning malakasini oshirishda, ularning ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha metodik bilimlarini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Og‘zaki mashqlar va kommunikativ yondashuvlarga oid metodikalarni o‘rgatish, shuningdek, til o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish bu modda doirasida ko‘rib chiqiladi.

Og‘zaki kommunikatsiya ko‘nikmalarining ahamiyatini tushunib, hozirda o‘quvchilarning gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘proq urg‘u berilmoqda, chunki bu ko‘nikmalar o‘quvchilarni o‘z ta‘limini muvaffaqiyatli yakunlashlari va o‘z sohalarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur. Bundan tashqari, ingliz tili ishga joylashish imkoniyatlari uchun til bo‘lib, insonlarga o‘z hayotidagi maqsadlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Olimlarga ga ko‘ra, “Gapirish – bu til o‘rganuvchilarining eng qiyin ko‘nikmalaridan biridir” (Bueno, Madrid & McLaren, 2006). Yillar davomida tilni o‘rgangan bo‘lsa ham, o‘quvchilar real vaqt vaziyatlarida gapirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunga bir nechta omillar sabab bo‘ladi. Parupalli Srinivas Raoning qarashiga binoan esa, birinchi navbatda, ELL o‘quvchilari gapirish ko‘nikmalarining ahamiyatini tushinishlari va bu ko‘nikmalarni o‘rganishga harakat qilishlari kerak, chunki ular bugungi raqobatbardosh dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarurdir (Parupalli Srinivas Rao, 2019).

Og‘zaki mashqlar tilni o‘rganishda muhim o‘rin tutadi, chunki ular o‘rganuvchilarga tilni amaliy ravishda qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bu mashqlar o‘quvchilarga nutq, eshitish, va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning tilga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Og‘zaki mashqlar til o‘rganishning barcha bosqichlarida, xususan, boshlang‘ich va o‘rta darajadagi o‘quvchilarda samarali qo‘llaniladi. Bu mashqlar nafaqat tilni o‘rganish, balki ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shuningdek, og‘zaki mashqlar til o‘rganuvchiga haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda tilni qanday qo‘llashni o‘rgatadi va bu orqali tilni o‘rganish jarayonini jonli va interaktiv qiladi.

Og‘zaki mashqlarni amalga oshirishda, turli metodlardan foydalanish mumkin. Bu metodlar o‘quvchilarga o‘z ko‘nikmalarini amaliyotda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Og‘zaki mashqlar, ayniqsa, o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ularning yordamida talabalar nafaqat nutqiy, balki eshitish va tushunish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

Og‘zaki mashqlar til o‘rganish va o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa chet tili yoki ikkinchi tilni o‘rganishda. Bu mashqlar o‘quvchilarga kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish, ishonchni oshirish va gapirishda erkinlikni oshirishga yordam beradi. Og‘zaki mashqlar strukturaviy, nazoratli mashqlardan tortib, ko‘proq erkin va tasodifiy suhbatlarga qadar bo‘lgan turli xil bo‘lishi mumkin. Mashqlarning maqsadiga qarab, gapirish mashqlari lug‘at, talaffuz, erkinlik, aniq gapirish yoki haqiqiy hayotda kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Og‘zaki mashqlarning turli turlari til o‘rganish jarayonida turli jihatlarga e‘tibor qaratish uchun ishlatiladi.

Quyida til o'qitishda va til o'rganishda keng qo'llaniladigan asosiy og'zaki mashqlar turlarini keltirib o'tamiz:

*Suhbatlar.* Suhbatlar o'quvchilarga kundalik hayotdagi vaziyatlarga mos ravishda muloqot qilishni o'rgatadi. Suhbatlar ikki yoki undan ortiq shaxslar o'rtasida bo'lishi mumkin va ular tilni ishlatishning tabiiy va interaktiv shakli hisoblanadi. Suhbatlar o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish, grammatikani to'g'ri ishlatish, va muloqotda ishtirok etish imkonini beradi. Suhbatlar nafaqat tilni o'rganishda, balki o'quvchilarning o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

*Dialoglar.* Dialoglar ikki kishining o'zaro muloqoti sifatida amalga oshiriladi. Bu mashqlar o'quvchilarni muayyan vaziyatlarda so'zlashishga undaydi. Dialoglar odatda muayyan mavzular yoki vaziyatlarga asoslanadi va o'quvchilarga real hayotdagi muloqot jarayonlarini simulyatsiya qilish imkonini beradi. Dialoglar yordamida o'quvchilar yangi lug'at va grammatik tuzilmalarni o'rganadilar, bu esa ularni tilni tezroq va samarali o'rganishga yordam beradi.

*Rolli o'yinlar.* Rolli o'yinlar o'quvchilarga turli ijtimoiy rollarda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Bu mashqlar o'quvchilarga amaliy vaziyatlarda tilni qo'llashni o'rgatadi. Masalan, o'quvchilar sotuvchi va xaridor, shifokor va bemor kabi rollarda muloqot qilishi mumkin. Rolli o'yinlar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'quvchilarga o'zlarining kommunikativ ko'nikmalarini yaxshilashda yordam beradi.

*Muammoli vaziyatlar.* Muammoli vaziyatlar o'quvchilarga turli muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Bu mashqlar o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, qaror qabul qilish va o'z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarga biron bir vaziyatni hal qilish uchun suhbat qurish taklif etilishi mumkin. Bu turdagi mashqlar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham yordam beradi.

*Ta'limotlar (Prezentatsiyalar).* Ta'limotlar – bu o'quvchilarga berilgan mavzu bo'yicha nutq yoki chiqish qilishni talab qiladigan faoliyatdir. Bu turdagi og'zaki faoliyat omma oldida nutq so'zlashda ishonchni rivojlantirish, fikrlarni tartibga solish va aniq gapirishga yordam beradi. O'quvchilar turli mavzularda ta'limot berishlari mumkin, ilmiy mavzulardan tortib, shaxsiy tajribalarigacha. Ta'limot tayyorlash o'quvchilardan o'z fikrlarini tartibga solish, tilni mashq qilish va auditoriyaga qarshi ishonch bilan chiqish talab etadi. Ta'limotlar, shuningdek, o'quvchilarga o'z g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun slaydlar kabi vizual vositalardan foydalanishni o'rgatadi.

*Intervyular.* Intervyular – bu real hayotdagi ish intervyularini yoki ma'lumot olish intervyularini simulyatsiya qiladigan og'zaki faoliyatlardir. Bu faoliyat o'quvchilarga savollarga aniq va ishonch bilan javob berish, tez va to'g'ri javoblar berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar intervyu olib boruvchi yoki intervyu oluvchi rolini bajarishlari mumkin va turli mavzular bo'yicha savollarni berish va javoblar berishni mashq qilishlari mumkin. Intervyular rasmiy tilni, masalan, xushmuomalalik, to'g'ri salomlashuvlar va professional atamalarni mashq qilish uchun foydalidir. Shuningdek, bu o'quvchilarga tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular berilgan savollarga diqqat bilan tinglashlari va aniq javoblar berishlari kerak.

Bundan tashqari, og'zaki mashqlarni onlayn shaklda ham amalga oshirish mumkin. Hozirgi kunda internetning rivojlanishi bilan birga, til o'rganish va mashqlarni bajarishning onlayn variantlari juda keng tarqalgan. Onlayn og'zaki mashqlar turli platformalar, ilovalar va resurslar orqali amalga oshiriladi. Ularning ba'zilari quyidagicha:

*Video-konferensiyalar va onlayn suhbatlar:* Zoom, Skype, Google Meet kabi platformalarda o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida real vaqt rejimida video va audio suhbatlar o'tkaziladi. Bu o'quvchilarga interaktiv ravishda og'zaki mashqlarni bajarishga imkon beradi. Suhbatlar, munozaralar, yoki muloqotlarni real vaqtda o'rganish mumkin.

*Onlayn til o'rganish ilovalari:* Duolingo, Babbel, Busuu kabi ilovalar onlayn tarzda til o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bu ilovalar o'quvchilarga og'zaki mashqlarni bajarishda yordam beradi, masalan, so'zlashuvda ishlatiladigan jumalarni to'g'ri shakllantirish va talaffuzni o'rganish.

*Onlayn til kurslari va platformalar:* Coursera, edX, Italki kabi platformalar onlayn til kurslari taqdim etadi, bu kurslar ko‘pincha video darslar, og‘zaki mashqlar, munozaralar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchi bilan muloqotni o‘z ichiga oladi. Bu orqali talaba real vaqtda o‘qituvchi bilan suhbat qurishi mumkin.

*Forumlar va onlayn guruhlar:* Til o‘rganayotganlar uchun turli onlayn forumlar va guruhlar mavjud, masalan, Reddit, Facebook, Discord kabi platformalarda. Bunday guruhlarda ishtirokchilar bir-biri bilan og‘zaki muloqot o‘tkazishlari, fikr almashishlari mumkin.

*Virtual til almashish platformalari:* Italki, Tandem, Speaky kabi onlayn platformalar, o‘quvchilarga boshqa tilni biladigan odamlar bilan virtual suhbatlar o‘tkazish imkonini beradi. Bu xizmatlar orqali foydalanuvchilar o‘z orzu qilingan tilda suhbatlashib, og‘zaki mashqlarni amalga oshirishi mumkin.

*Talaffuzni rivojlantirish ilovalari:* Speechling yoki ELSA Speak kabi ilovalar talaffuzni yaxshilashga qaratilgan. Bu ilovalar foydalanuvchilarga og‘zaki mashqlarni bajarish va talaffuzdagi xatolarni aniqlash imkonini beradi.

*Podkastlar va YouTube kanallari:* Onlayn podkastlar yoki YouTube kanallari til o‘rgatishda juda mashhur. Bu platformalarda o‘quvchilar tilni so‘zlashuvda ishlatish, talaffuzni yaxshilash va grammatika mashqlarini amalga oshirish uchun turli video yoki audio resurslarga kirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bunday onlayn mashqlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining og‘zaki ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin, ular uchun masofaviy o‘qitish va o‘zaro muloqot imkoniyatlari mavjud. Og‘zaki mashqlar turlari turlicha bo‘lib, ingliz tilini o‘rganishda turli maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu mashqlar o‘quvchilarga gapirishning turli jihatlarini, masalan, erkinlik, aniqlik va haqiqiy hayotdagi suhbatlarda ishtirok etishni o‘rganishga imkon beradi. Turli xil faoliyatlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli o‘rganish uslublariga moslashishi va ularga tilni samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan vositalarni taqdim etishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Elektron resurs: <https://lex.uz/docs/5013007>
2. Bueno, A., Madrid, D., & McLaren, D. (2006). Teaching English as a foreign language. McGraw-Hill, 234-246
3. Parupalli Srinivas Rao (2019). The importance of speaking skills in English classrooms. Alford council of international English and literature journal (ACIELI), 2 (2).
4. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 267-275.